



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 8 - aprel

147-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil I yarim yillik
ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”** gi PF-37-son Farmonida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosini hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2024-yil 7-martdagi **“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi 21/109-sonli bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligining 2024-yil I yarim yilligi uchun ish rejasi **ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimi o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi apparati bo‘linmalari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi**

to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”** 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2024-yil 13-martdagi PF-49-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Vazirlar Mahkamasi komplekslari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan **2023-yil yakunlari hamda 2024-yilda bajariladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlarida** berilgan topshiriqlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda **“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”** 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaror;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil I yarim yillik uchun ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari, viloyat boshqarmalari rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda:

viloyat hokimligining 2024-yil I yarim yilligi uchun ish rejasining bajarilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta’minlashda ijro intizomiga qat’iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini **“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”**da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq:

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish;

“Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘shir sur‘atlarini ta‘minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan amaliy tadbirlar rejalarini tasdiqlash.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida 2024-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida, to‘laqonli va sifatli erishilishini ta‘minlash, tuman va shahar hokimlari, boshqarmalar rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining bu boradagi **mas’uliyati va shaxsiy javobgarligini oshirish** hamda **faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida** mutasaddi rahbarlar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI), samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha **“yo‘l xaritalar”** hamda mutasaddi rahbarlar qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e‘tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda tuman va shahar hokimliklarining 2024-yil I yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash.

Viloyat hokimligining 2024-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasi talablariga qat’iy rioya etilsin.

a) **2024-yil 10-aprelga qadar** - tegishli boshqarmalar, idoralar, shahar (tuman)lar hokimliklarining 2024-yil I yarim yillik ish rejalarini tartibga solish bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

b) **doimiy va tizimli asosda** – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o‘rganib chiqilishini **(ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq)** ta‘minlash;

v) **2024-yil 15-iyulga qadar** viloyat hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo‘limlariga 2024-yil I yarim yilligi ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari,

hokimlik apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga:

viloyat hokimi va uning o'rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o'z muddatida sifatli va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirilishiga alohida e'tibor qaratish;

2024-yil I yarim yillik ish rejasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar, tumanlar hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejaları tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko'rish;

6. Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi (F.Ergashev), ijro intizomi nazorati bo'limi (A.Erkayev):

Vazirlar Mahkamasining tegishli departamentiga **2024-yil 20-iyulga qadar - 2024-yil I yarim yillik** ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi axborotni va **2024-yil II yarim yillik** ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflar taqdim etsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, viloyat hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo'yilgan vazifa va masalalarning o'z vaqtida to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha shaxsan mas'uldirlar.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosarlari, viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo'limi (A.Erkayev) zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – viloyat
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig'i kotibiyatining
2024-yil I yarim yillikka mo'ljallangan**

ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
Ia. 2024-yil I yarim yillikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1	Viloyatdagi tegishli boshqarmalar va tashkilotlar, tijorat banklari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlarining 2024-yil I yarim yillikda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – viloyat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig'i huzurida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirishi bo'yicha hisobotlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, aloqador idoralar

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
2	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari kotibiyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2023-yillarda Qashqadaryo viloyatiga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonlardagi 2024-yil I yarim yillikda bajarilishi lozim bo'lgan nazorat bandlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, aloqador idoralar
3	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari kotibiyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish yuzasidan 2022-2023-yillarda o'tkazilgan majlislar bayonlaridagi 2024-yil I yarim yillikda bajarilishi lozim bo'lgan nazorat bandlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, aloqador idoralar
4	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari rahbarlik qiladigan idoralararo kollegial organlar (komissiya, kengash) da belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, aloqador idoralar

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linma, hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassisleri.
5	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari kotibiyati bo‘yicha 2022-2023-yillarda tasdiqlangan “Yo‘l xaritalari”dagi 2024-yil I yarim yillikda bajarilishi lozim bo‘lgan nazorat bandlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, aloqador idoralar
6	2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 2024-yilgi Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, tijorat banklari rahbarlari, tuman (shahar) hokimliklari.
7	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmonida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, tijorat banklari rahbarlari, tuman (shahar) hokimliklari.

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, tijorat banklari rahbarlari, tuman (shahar) hokimliklari.
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashriflari yakunlari bo'yicha tasdiqlangan bayonnomaning kotibiyatga biriktirilgan boshqarma va tijorat banklari hamda boshqa tashkilotlarda bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat Moliya –iqtisodiyot bosh boshqarmasi, tegishli boshqarmalar va tashkilotlari, tuman (shahar) hokimliklari.
10	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2021-yil 3-dekabrda PF 29-sonli qaroridagi topshiriqlari bajarilishini ta'minlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tegishli boshqarmalar va tashkilotlari, tuman (shahar) hokimliklari.

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassisleri.
11	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 2021-yil 3-dekabrda PQ-31-sonli qaroridagi topshiriqlari bajarilishini ta'minlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tegishli boshqarmalar va tashkilotlari, tuman (shahar) hokimliklari.
12	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ 39-sonli qarorning ijrosi qaroridagi topshiriqlari bajarilishini ta'minlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	I. Salomov. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.
13	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-yanvardagi “Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 15-son qarorida berilgan topshiriqlarni bajarilishini ta'minlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassisleri.
14	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 2021-yil 17-martdagi PQ-5031-sonli qaroridagi topshiriqlarni bajarilishini ta'minlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tuman (shahar) hokimliklari.
15	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 465-sonli qaroridagi topshiriqlarni bajarilishini ta'minlash doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi injiniring kompaniyasi” davlat unitar korxonasi, tuman (shahar) hokimliklari.
16	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 287-son Farmoni doirasida tizimli ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli tashkilotlar rahbarlari, tuman (shahar) hokimliklari.
17	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida” gi 7-son qarori doirasida ishlarni tashkil etish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tashkilotlar rahbarlari, tuman (shahar) hokimliklari.

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
Ib. 2024-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflari			
Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning viloyatga tashriflari davomida viloyatni rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tegishli boshqarmalar va tashkilotlari, tuman (shahar) hokimliklari.
2	Viloyatda 2024-yil uchun asosiy makroqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ishlab chiqish, Bunda • Iqtisodiy o'sish darajasining o'rtacha 6,5 foizdan yuqori bo'lishini; • Inflatsiyaning 2024-yildan 5 foiz target ko'rsatkichi darajasida ushlab turish; • Pul-kredit, budjet-soliq siyosatlari va tarkibiy islohotlarni o'zaro muvofiqlashtirish; • Tuman va shaharlarning muvozanatlashgan rivojlanishi va ishlab chiqarish quvvatlarini ijtimoiy samarali joylashtirilishini ta'minlash.	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tegishli boshqarmalar va tashkilotlari, tuman (shahar) hokimliklari.
II. 2024-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari			

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linma, hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
1	Belgilangan soliq tushumi prognozlari doirasida tushumlar tushishini hamda qo‘shimcha manbalar aniqlanishi va davlat budjetiga undirilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning 2024-yil I yarim yilligida bajarilishini tahlil qilish	I yarim yillik davomida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev viloyat Soliq boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tuman (shahar) hokimliklari.
2	Sotib olingan davlat aktivlarining ishga tushirilishi, investitsiya majburiyatlari bajarilishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishini tahlil qilish	I yarim yillik mobaynida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.
3	Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga ta’siri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	I yarim yillik mobaynida	I.Salomov Markaziy bank viloyat boshqarmasi tijorat banklari tuman (shahar) hokimliklari.
4	2024-yil I yarim yilligida har bir tuman va shaharda 2024-yilgi ko‘rsatkichdan kam bo‘lmagan miqdorda tadbirkorlik subyektlari tashkil etilishini tahlil qilish.	I yarim yillik davomida	Sh.Erboyev Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.
III. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini maqsadli o‘rganish va natijasini kengaytirilgan yig‘ilishlarda ko‘rib chiqish			

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassisleri.
1	O'zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini maqsadli o'rganish va ijrosini ta'minlash borasida barcha choralarni ko'rish hamda tegishli mas'ullar bilan muhokama etish.	I yarim yillik davomida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli boshqarmalar va tashkilotlari tuman (shahar) hokimliklari.
IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o'rganish			
1	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tiziminin yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 3-avgustdagi PQ 4976-son qaroriga muvofiq, belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash.	Aprel	N.Qurbonov viloyat Statistika boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.
2	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son qaroriga muvofiq, belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash.	Har chorakda	N.Qurbonov viloyat Soliq boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.
3	Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 27-yanvardagi PQ 104 son qaroriga muvofiq belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash.	I yarim yillik davomida	I.Salomov viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari.

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmonida belgilangan yo'nalishlarni ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilish	I yarim yillik davomida	A.Berdiyev N.Qurbonov I.Salomov Sh.Erboyev tegishli tashkilot rahbarlari tuman (shahar) hokimliklari.

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari kotibiyatining 2024-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar: Boshqarmalar, tashkilot, korxonalar; tumanlar va shaharlar hokimliklari; viloyat hokimligi kotibiyati mutaxassislari
1	Aholi tomorqalarida 65 ming gektar maydonda ertangi, takroriy va to‘qsonbosti ekinlarini ektirishni tashkil etish bo‘yicha tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda dasturlar ishlab chiqib, ekishni tashkil qilish.	aprel	Viloyat Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman va shahar hokimlari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
2	Viloyatda 2024-yilda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish, naslchilik ishlarini tashkil etish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	aprel	Viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi, tuman va shahar hokimlari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
3	Paxta va g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish.	agrotexnik muddatlarda	viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
4	“Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor” g‘oyasi asosida hududlarda barcha toifa xo‘jaliklarida 42,3 ming gektarga, shundan fermer xo‘jaliklarining 3,7 ming gektar ochiq maydonlariga, 15,3 ming gektar fermer xo‘jaliklarida bog‘ qator orasi va 26,6 ming gektar aholi tomorqalariga “to‘qsonbosti” usulida ekilgan sabzavotlardan kutilayotgan hosilni nes-nobud qilmasdan yig‘ishtirib olish.	aprel	viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi viloyat bo‘limi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
5	Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish orqali sug‘orishda suv resurslarini iqtisod qilish va takroriy ekinlarni suv bilan ta‘minlash choralari ko‘rish.	aprel-may	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, tuman hokimlari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
6	Fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalari dala chetlariga mevali, uzum tut va manzarali ko‘chatlar hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari ektirishini tashkil etish.	aprel	viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi viloyat bo‘limi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
7	Viloyatda 2024-yil bahorgi dala ishlarida qatnashadigan qishloq xo‘jaligi texnikalarini mavsumga tayyorlash ishlarini tashkil etish.	aprel	viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Agroinspeksiya viloyat boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
8	Eksportbop mahsulot yetishtirishni yanada ko‘paytirish uchun intensiv usulda plantatsiya shaklida 1,4 ming gektar maydonda sabzavot ekinlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yish.	aprel	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligi viloyat bo‘limi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilot, korxonalar; tumanlar va shaharlar hokimliklari; viloyat hokimligi kotibiyati mutaxassislari
9	Chorva ozuqa bazasini mustahkamlash uchun 65 ming 474 gektar ozuqa maydonlarining 2 ming 327 gektar yangi beda (20 ming 940 gektar eski beda mavjud), 16 ming 684 gektar silos uchun makkajo'xori, 2 ming 284 gektar oq jo'xori, 1 ming 130 gektarga xashaki lavlagi, 20 ming gektarga chorva uchun g'alla, g'alladan bo'shagan yer maydonlariga takroriy makkajo'xori silos uchun 39 ming 412 gektar, 13 ming 986 gektarga kuzgi oraliq ozuqa ekinlari ekish	aprel-may	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi, tuman hokimlari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
10	Yaylov xo'jaligini rivojlantirish uyushmasi tizimidagi qorako'lchilik subyektlarida mayda shoxli mollar parvarishi va bosh sonlarini ko'paytirish, belgilangan vazifalar ijrosi hamda cho'l-yaylov ozuqabop ekinlar urug'chiligini rivojlantirish ishlarining holatini o'rganish.	aprel-may	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish boshqarmasi, tuman hokimlari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
11	Agrar sohani zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini qabul qilish. Bunda: agrar sohani zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalariga bo'lgan talabni aniqlash. Bunda, texnika ta'minoti past bo'lgan chorvachilik, sabzavot va polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishlarini rivojlantirishga alohida ustuvorlik berish; qishloq xo'jaligi texnikalarini mahalliy lashtirish darajasini oshirish; agroklastarlar va fermer xo'jaliklariga texnikalarni qulay kredit va lizing shartlari asosida yetkazib berish hamda kafolatli servis xizmatlarini tashkil etish.	aprel-may	Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, "Agrolizing" aksiyadorlik jamiyati viloyat filiali, tuman hokimlari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
12	Hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha 80-100 sentnerga yetkazish maqsadida paxta va g'allaning ekinlari hosildorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.	aprel-may	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Janubiy dehqonchilik tadqiqot instituti, tuman hokimlari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
13	Viloyatdagi ilmiy-tadqiqot instituti va oliy ta'lim muassasalarida ishlanmalarni joriy etish holatini tahlil qilish hamda asoslangan takliflar ishlab chiqish.	aprel-may	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Janubiy dehqonchilik tadqiqot instituti, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
14	Ichki iste'mol bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqatlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx-navolarning barqaror saqlanishini ta'minlash bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish.	1 yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari kotibiyati E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
15	Dehqon xo'jaliklari yerlari va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha tumanlar hokimliklari rahbarlari tomonidan ko'rilyotgan chora-tadbirlar natijadorligini tahlil qilish.	har oyda	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, Markaziy bank boshqarmalari, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
16	Tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirish holatini tahlil qilish.	har oyda	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Markaziy bank bosh boshqarmasi, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
17	Tumanlarda foydalanishdan chiqib ketgan 25 ming gektar yerlarni 2024-yilda o'zlashtirish hamda eksportbop mahsulotlarni yetishtirish ishlarini tashkil etilishini tahlil qilish.	aprel	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilot, korxonalar; tumanlar va shaharlar hokimliklari; viloyat hokimligi kotibiyati mutaxassislari
18	2024-yilda kam hosilli va yaroqsiz bog'lar o'rni zamonaviy intensiv bog'lar tashkil etilishini tahlil qilish.	may	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
19	Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish hamda ko'chmas mulk obyekti kadastr pasportining yangi namunasini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini tahlil qilish.	aprel	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, "Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi" viloyat boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
20	O'simliklarning karantin va boshqa zararkunandalari, kasalliklar va begona o'tlarning tarqalishini monitoring qilish va prognozlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini tahlil qilish.	aprel	O'simliklari karanti va himoyasi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
21	O'rmon fondi yerlarini jismoniy va yuridik shaxslarga ijara, investitsiyaviy shartnoma asosida samarasiz maydonlarni foydalanishga kiritish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili.	may	viloyat O'rmon xo'jaligi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
22	O'rmon fondi yerlarida o'rmon barpo etish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	may	viloyat O'rmon xo'jaligi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
23	Kartoshkachilik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo'l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	har oyda	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
24	O'rmon fondi yerlarida aholining yong'oq, meva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida yong'oq mevali (pista, bodom, yong'oq) plantatsiyalar barpo etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish.	may	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, viloyat O'rmon xo'jaligi bo'limlari, tumanlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
25	Limonchilik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo'l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	iyun	Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi, tumanlar va shaharlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
26	Chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik va baliqchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo'l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	iyun	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish, Markaziy bank, Qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
27	Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, investitsiya loyihalari va yo'l xaritalari ijrosini tahlil qilish.	iyun	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, "Agropilla" MCHJ, tumanlar va shaharlar hokimliklari, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
28	G'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish va oziq-ovqat ekinlarining ekilishini tahlil qilish.	iyun	viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilot, korxonalar; tumanlar va shaharlar hokimliklari; viloyat hokimligi kotibiyati mutaxassislari
29	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari U.Uzoqov rahbarligida tegishli tashkilotlarning sohani isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan choralarni muhokama qilish. Har haftada barcha darajadagi topshiriqlar ijrosi va "ijro.gov.uz" tizimidagi topshiriqlarning bajarilish holati bo'yicha videoaloqa tizimi orqali har bir tuman va shahar va idora rahbarlarining ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha hisobotini eshitish tizimini davom ettirish.	har haftada	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
30	Tuman va shahar hokimliklari hamda idoralar, shuningdek, vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan, "yo'l xaritalari"ning o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, tahlil qilish, nazorati va monitoringini olib borish.	har oyda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari
31	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralar aro yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori ijrosini tahlil qilish.	har oyda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, E.Hasanov, kotibiyat mutaxassislari

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyatining 2024-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan

ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linma, hududiy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
I. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1.	“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, viloyat hokimligi: (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi qurilish sohasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish	I yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, viloyat hokimligi: (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizmi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan qurilish sohasidagi vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarmalar, tashkilotlar va korxonalar, viloyat hokimligi: (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov, Sh.To‘xtayev, Sh.Qodirov)
II. 2024-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha takliflari			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda “2024–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-404-son qaroriga muvofiq 2024-yil investitsiya dasturiga asosan 200 ta ijtimoiy va infratuzilma obyekti 1,1 trln so‘mlik qurilish-ta’minlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e’lon berish va uni o‘tkazilishini ta’minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta’minlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, viloyat qurilish sohasida davlat xaridlarini tashkil etish konsalting markazi, “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizasi” DUK viloyat filiali, Buyurtmachi tashkilotlar, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi: (B.To‘rayev, N.Mirzarahimov)

№	Ustavov vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
2.	2024-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati IK" DUK buyurtmachiligida 75 ta ijtimoiy va infratuzilma obyektida 460 mlrd so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, viloyat qurilish sohasida davlat xaridlarini tashkil etish konsalting markazi, "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizasi" DUK viloyat filiali, viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati IK" DUK, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
3.	2024-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi xuzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati IK" DUK buyurtmachiligidagi 32 ta yildan-yilga o'tuvchi obyektlarga moliyalashtirish ochish va qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati IK" DUK Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
4.	2024-yil investitsiya dasturiga asosan viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati IK" DUK buyurtmachiligidagi 43 ta yangidan boshlanuvchi obyektning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	viloyat Qurilish va uy-joy kommunal qurilish boshqarmasi, "Qashqadaryo viloyati qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi" "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK viloyat filiali, buyurtmachi tashkilotlar, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, tuman(shahar)lar hokimlari, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
5.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi davlat muassasasi shaklida Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi buyurtmachiligidagi 85 ta shundan, 30 ta maktabgacha ta'lim va 55 ta umumta'lim muassasalari loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniya DM viloyat bo'limi, viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
Uy-joylar bo'yicha.			
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi "2023-yil bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-sonli Farmoniga asosan "Yangi O'zbekiston" massivlari bo'yicha qurilish ishlari davom etayotgan 34 ta (1180 xonadon) shundan: Koson tumanida 15 ta (348 xonadon); Yakkabog' tumanida 11 ta (364 xonadon); Qarshi tumanida 8 ta (468 xonadon) ko'p qavatli uy-joylarda qurilish ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida viloyat hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i, Koson, Yakkabog', Qarshi tumanlari hokimlirlari, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabdagi 221-sonli yig'ilish bayoniga asosan Uy-joyga talab yuqori bo'lgan boshqa hududlardan qurilishi davom etayotgan 17 ta (635 xonadon) ko'p qavatli uy-joylarda qurilish ishlarini jadallashtirish.	I yarim yillikda	viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida viloyat hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i, tuman va shahar hokimliklari, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoniga asosan Ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan hamda seysmik zaifligi va avariya alomatlari aniqlangan ko'p kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish choralari ko'rish, 2024-yil uchun ko'p kvartirali uy-joylarni renovatsiya qilish bo'yicha manzilli ro'yxatni shakllantirish hamda tasdiqlash	I yarim yillikda	viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida viloyat hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i, tuman va shahar hokimliklari, viloyat hokimligi: (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi "O'zbekiston 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-sonli Farmoniga asosan 2024-yil uchun uy-joy qurilishi va ipoteka dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.		viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida viloyat hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i, tuman va shahar hokimliklari, viloyat hokimligi (B.To'rayev, N.Mirzarahimov)
Viloyat aholisini ichimlik suvi ta'minotini yanada yaxshilash bo'yicha.			
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "2024-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-404-son qaroriga muvofiq 2024-yil investitsiya dasturiga asosan 9 ta ichimlik va oqova suv obyekti 61,9 mlrd so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va davlat ekspertiza xulosasi olish, tender (tanlov) savdolariga e'lon berish va uni o'tkazilishini ta'minlash, qurilish ishlarini boshlash va moliyalashtirishni ochish, qurilish-ta'mirlash ishlarini jadallashtirish	I yarim yillikda	"Qashqadaryo suv ta'minoti" MCHJ "Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo'yicha IK" DUK, Viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.Qodirov)
Elektr energiya ta'minoti bo'yicha.			
1.	Elektr uzatish tarmoqlari, transformator punktlari va podstantsiyalarni 2024-2025-yil kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha mukammal ta'mirlash ishlari dasturida belgilangan ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	"Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari" AJ, tuman (shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.Qodirov)
2.	Iste'molchilarga, ayniqsa xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan shartnomaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va rivojlantirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, muddatlarini optimallashtirish.	I yarim yillikda	"Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari" AJ, tuman (shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.Qodirov)
Tabiiy va suyultirilgan gaz ta'minoti bo'yicha.			
1.	4,0 km gaz tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash	I yarim yillikda	"Hududgaz Qashqadaryo" gaz ta'minoti filiali, tuman(shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.Qodirov)
2.	Tabiiy gazdan xavfsiz foydalanishni ta'minlash maqsadida 8 000 ta gaz regulyatorini o'rnatish.	I yarim yillikda	"Hududgaz Qashqadaryo" gaz ta'minoti filiali, tuman(shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.Qodirov)
3.	2024-yil birinchi yarim yillikda tabiiy gazdan bo'lgan debitor qarzdorlikni kamida 15 foizga qisqartirish bo'yicha barcha zaruriy choralar ko'rish.	I yarim yillikda	"Hududgaz Qashqadaryo" gaz ta'minoti filiali, tuman (shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.Qodirov)
Hududiy avtomobil yo'llarini rivojlantirish bo'yicha.			
1.	2024-yilda jami 1 981 km (209,2 km umumfoydalanuv va 171 km ichki yo'llar, 1601 km tuproq yo'llarni shag'allashtirish) yo'llarni ta'mirlash va 27 dona (12 dona umumfoydalanuv va 15 dona ichki yo'llarda) ko'priklarni qayta qurish hamda ta'mirlash.	I yarim yillikda	Viloyat Avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi, tuman(shahar)lar hokimliklari viloyat hokimligi: (B.To'rayev, Sh.To'xtayev)

25	Viloyat hokimligi apparat xodimlarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkich (KPI)lariga erishishdagi hamda vazifa va funksiyalarni bajarilishdagi hissasini har oyda baholash hamda taklif kiritib borish	har oy yakuni bilan	Viloyat hokimligi kotibiyatlari, tarkibiy bo'linmalari, X.Xidirov,

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
12-ilova

Viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisining 2024-yil I yarim yillik

ISH REJASI

t/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar (idoralar, boshqarmalar, xo'jalik birlashmalari va tuman/shahar hokimliklari)
1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni talablarini so'zsiz va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan davlat tilini rivojlantirish masalalari bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash va sohaga oid yangiliklarni targ'ib qilib borish.	muntazam	Viloyat hokimining maslahatchisi, tegishli idoralar, boshqarmalar, xo'jalik birlashmalari va tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda

3.	Viloyat miqyosida, tuman (shahar)lar, mahallalar, ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda Adabiyot haftaliklari o'tkazish.	aprel	Viloyat hokimining maslahatchisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat mahallalar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda
4.	O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy xotira kechasini tashkil etish.	aprel	Viloyat hokimining maslahatchisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat mahallalar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda
5.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi farmoyishiga asosan O'zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullayev tavalludining 90 yilligini munosib nishonlash va faoliyatini keng targ'ib qilish.	may, iyun	Viloyat hokimining maslahatchisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat mahallalar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda
2. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan topshiriqlar ijrosi bo'yicha			
1.	Tuman (shahar) hokimlarining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchilari uchun reja asosida amaliy seminarlar tashkil etish.	muntazam	Viloyat hokimining maslahatchisi, tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda

2.	Viloyat tashkilotlari, boshqarma, idoralar hamda muassasalarning, tuman (shahar) hokimliklarining rasmiy veb-saytlarining davlat tilida va lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida yuritilishi holatini o'rganish hamda natijalarini tahlili qilish.	aprel	Viloyat hokimining maslahatchisi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi, tegishli tashkilot va tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda
3.	Tuman (shahar) hokimliklaridagi mavjud geografik obyektlarga nom berish hamda davlat reestriga kiritish holatini tahlil qilish va natijasi bo'yicha ma'lumot tayyorlash.	aprel	Viloyat hokimining maslahatchisi, davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi, viloyat mahallalar uyushmasi, tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda
4.	Viloyat Transport boshqarmasi va viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasida Vazirlar Mahkamasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi 61-son qarori ijrosini o'rganish.	aprel	Viloyat hokimining maslahatchisi, tegishli tashkilotlar hamda viloyat Transport boshqarmasi bilan birgalikda
5.	Viloyatdagi barcha korxona va tashkilotlar tarkibida ish yuritish, shuningdek barcha idoralararo hujjatlar aylanishi davlat tilida bo'lishini to'liq ta'minlash va bu jarayonda davlat tiliga qat'iy amal qilishni nazorat qilish.	aprel	Viloyat hokimining maslahatchisi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat mahallalar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o'quv yurtlari, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda
6.	Jadid ma'rifatparvarlarining o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rni mavzusida oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ta'lim maskanlarida adabiy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.	may-iyun	Viloyat hokimining maslahatchisi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari, oliy o'quv yurtlari, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda

7.	Vazirlar Mahkamasining geografik obyektlar nomlari sohasidagi qarorlari ijrosi bo'yicha davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida o'rganishlar olib borish.	may-iyun	Viloyat hokimining maslahatchisi, davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi, viloyat mahallalar uyushmasi, viloyat Transport boshqarmasi, viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi, tegishli tashkilotlar birgalikda
8.	Geografik obyektlarni farqlash va aniqlash hamda ularni toifalarga ajratish uchun “Geografik obyektlarning klassifikatsiya” ni ishlab chiqish.	iyun	Viloyat hokimining maslahatchisi, davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi, viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi, viloyat mahallalar uyushmasi, viloyat Transport boshqarmasi, viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi, viloyat Adliya boshqarmasi va tegishli tashkilotlar birgalikda
9.	Viloyat, tuman (shahar) hokimliklari, davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi hamda uning hududiy filiallarining geografik obyektlarni nomlash masalalariga mas'ul bo'lgan xodimlari uchun hududiy o'quv-seminarlar tashkil etish.	may-iyun	Davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari va tegishli tashkilotlar birgalikda

10.	Ko'cha nomi, ko'chmas mulk obyekti raqami yozilgan lavhani o'rnatish qoida va me'yorlari bo'yicha tartib ishlab chiqish. Tartibda quyidagilarni nazarda tutish: ko'cha nomi yozilgan lavhani, ko'chmas mulk yozilgan obyektga o'rnatishni qat'iy etib belgilash; ko'cha nomi, ko'chmas mulk obyekti raqami yozilgan lavhaning ishlab chiqish va tasdiqlash; magistral yo'l, halqa avtomobil yo'li, chorraha va shoh ko'chalarda hamda davlat idoralari, tashkilot va muassasalarda ko'cha nomi hamda obyekt raqami yozilgan lavhani o'rnatish tartibini belgilash; mahallalardagi ichki ko'cha, tor ko'cha, berk ko'chalarda ko'cha nomi yozilgan lavha, uy va xonadonda esa raqam o'rnatish tartibini belgilash; lavhani o'zboshimchalik bilan o'rnatish, olib tashlash holatlarining oldini olish; lavhani o'rnatishga mas'ul idora, o'rnatish xarajatining manbasiga aniqlik kiritish.	iyun	Davlat Kadastlari palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat mahallalar uyushmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, viloyat Avtomobil yo'llari boshqarmasi, viloyat Statistika boshqarmasi bilan birgalikda
11.	Viloyat hududidagi barcha tashqi yozuvlar, shu jumladan, peshlavhalar, reklama va e'lonlar, ko'rgazmali boshqa axborot matnlarining mazmuni davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va odob normalariga muvofiqligini hamda davlat tili va reklama to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o'rganish va belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.	iyun	Viloyat hokimining maslahatchisi, viloyat Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi, viloyat Adliya boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tuman (shahar) hokimliklari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda
III. Viloyat hokimi rahbarligida tashkil etiladigan majlislarda ko'rib chiqiladigan masalalar			
1.	Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasi majlislarida geografik obyektlarga nom berish masalalarini ko'rib chiqish.	muntazam	Davlat Kadastlari palatasi viloyat boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari, viloyat mahallalar uyushmasi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda
4. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish			

1.	Ommaviy axborot vositalari, Internet saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlarning belgilangan kanal va guruhlarida davlat tiliga bag'ishlangan turkum materiallar berib borish, shuningdek, davlat tiliga doir yoritilgan materiallarni tahlil qilish hamda o'z munosabatini bildirish.	muntazam	Viloyat hokimining maslahatchisi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, bilan birgalikda
----	--	----------	--

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
13-ilova

Qashqadaryo viloyati hokimligi Axborot-tahlil guruhining 2024-yil I yarim yillikka mo'ljallangan

I S H R E J A S I

№	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari
I. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining saylovoldi dasturi hamda saylovchilar bilan uchrashuvlar vaqtida bildirilgan taklif va vazifalar, berilgan topshiriqlar ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoni hamda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-son qarori ijrosi doirasidagi chora-tadbirlari o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
5	Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijro holatini "Ijro.gov.uz" tizimida tahlil qilish.	har oyda	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5230-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora- tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son va "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 8-yanvardagi PQ-4102-son qarorlariga muvofiq mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishini tashkil etish shakllari va usullarini tubdan takomillashtirish, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan vazifalarning so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlash.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari
9	Viloyat hokimining o'rinbosarlarining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) 2024-yil I-II-chorak yakunlari bo'yicha erishilishini ta'minlash va natijalarini tahlil qilish.	10-aprel, 5-iyul	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlari, tuman(shahar)lar hokimliklari

№	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari
10	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 10-maydagi 0-1-1222-sonli topshiriq xatiga asosan, Qashqadaryo viloyat hokimining 2022-yil 15-maydagi "Tuman(shahar) hokimi o'rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash haqida"gi 352-4-0-Q/22-sonli qaroriga asosan tuman (shahar) hokimi o'rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholab borish	20-aprel, 20-iyul	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
11	Boshqarma, korxona tashkilot va tuman (shahar) hokimiyat organlarining, har oyda "yo'l xaritalari"ning o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, tahlil qilish, nazorat va monitoring olib borish.	har oyda	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
II. Vazirlar Mahkamasi majlislari (videoselektorlari)da ko'rib chiqiladigan masalalar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish natijalari to'g'risida			
12	2024-2025-yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.	15-aprel	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
13	Madaniy meros obyektlarida olib borilayotgan asrashga doir ishlarining borishi, mavjud madaniy meros obyektlaridan maqsadli foydalanilishi holati to'g'risida.	3-may	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
14	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 14-dekabrda PQ-389-son qarori ijrosini maqsadli o'rganish.	10-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
III. O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri rahbarlik qiladigan idoralararo kollegial organ (komissiya, kengash)lar majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalar			
15	"Shahrisabz" va "Maydanak" turistik markazlarida obyektlarni barpo etish, jumladan, loyihalash, qurilish-montaj va moliyalashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha komissiyasi yig'ilishida turistik markazlar infratuzilmasini rivojlantirish hamda obyektlar qurilishini jadallashtirish doir masalalarni ko'rib chiqish.	10-aprel	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o'rganish			
16	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrda PQ-300-son qarori ijrosi doirasidagi chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini o'rganish.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
17	"O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2024-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	aprel-iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
18	Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablar yagona elektron reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori doirasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish.	may	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
19	O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-886-son Qonunida belgilangan vazifalar va budjet parametrlarining o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini maqsadli o'rganish.	iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
20	Tashkillashtirilgan va manzilli tartibda xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun fuqaroning yuborilishiga ko'maklashish holatini o'rganish.	iyun	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari
21	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni, "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrda PQ-300-son qarori hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifa va topshiriqlarning ijrosi holatini tizimli tahlil qilish va monitoringini olib borish.	har hafta (juma)	Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi, viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar, tuman(shahar)lar hokimliklari

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
14-ilova

Viloyat hokimligi umumiy bo'limining 2024-yil I yarim yillik

ISH REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan ishlar, ko'zda tutilgan tadbirlar	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlisi Senati hamda boshqa yuqori va quyi turuvchi tashkilotlardan kelayotgan hujjatlar (Qonun, Farmon, qaror, farmoyish, yig'ilish bayonlari va boshqalar)ni "E-xat" elektron tizimi hamda "edo.ijro.uz" dasturi orqali qabul qilish va ro'yxatga olish.	doimiy	O.Jo'raqulov, G.Maxamova
2	"E-xat" elektron tizimi hamda "edo.ijro.uz" dasturi orqali qabul qilinib, ro'yxatga olingan hujjatlarga tegishliligi bo'yicha rezolyutsiya (fishka) tayyorlab, viloyat hokimiga "edo.ijro.uz" dasturi orqali kiritish.	doimiy	J.Abdirahimov
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, qaror va farmoyishlari, Prezident Administratsiyasi topshiriqlari, Oliy Majlisi Senati qarorlari va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, bayonnomalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Bosh vazir o'rinbosarlarining topshiriqlari, viloyat hokimining qaror va farmoyishlari, o'tkazilgan yig'ilishlar bayonnomalarini o'z vaqtida ijrochilarga yetkazilishi bo'yicha nazoratni tashkil etish.	doimiy	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlisi Senati hamda boshqa yuqori turuvchi tashkilotlardan kelayotgan "Xizmat doirasida foydalanish uchun" (XDFU) grifi ostidagi kirim hujjatlarini hamda viloyat hokimligidan chiqayotgan XDFU grifi ostidagi chiqim hujjatlarni ro'yxatga olish va ijrochilarga yetkazilishini ta'minlash.	doimiy	J.Abdirahimov
5	Viloyat hokimligining va uning faollari majlislarida, viloyat hokimi, uning o'rinbosarlari o'tkazadigan yig'ilishlarda umumiy bo'lim vakolati sohasiga kiruvchi masalalar bo'yicha o'tkaziladigan yig'ilishlarda qatnashish.	doimiy	J.Abdirahimov
6	Viloyat hokimligi hujjatlar yig'ima jildlari nomenklaturasini tuzish, hokimlik apparatida hujjatlarning saqlanishini ta'minlash va arxiv ishlarini tashkil etishni ta'minlash.	doimiy	O.Jo'raqulov, G.Maxamova
7	Ijro etilgan, doimiy saqlanishi lozim bo'lgan hujjatlarni qog'oz ko'rinishida arxivga topshirishga tayyorlash masalalari yuzasidan tarkibiy bo'linmalarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish.	doimiy	O.Jo'raqulov, G.Maxamova
8	Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linmalarida, shahar va tumanlar hokimliklarida EDO.IJRO.UZ, e-qaror, e-xat va boshqa dasturlar orqali hujjatlar harakatini nazorat qilib borish.	doimiy	J.Abdirahimov O.Jo'raqulov
9	Tarkibiy bo'linmalarga yangidan qabul qilingan mutaxassislar bilan ish yuritish va hujjatlar bilan ishlash yuzasidan suhbat o'tkazish, ularni normativ hujjatlar va yo'riqnoma bilan tanishtirish.	doimiy	J.Abdirahimov O.Jo'raqulov, G.Maxamova
10	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga asosan umumiy bo'limga kelib tushgan barcha elektron kirim va chiqim hujjatlarni arxivga topshirish uchun qog'oz shaklida chiqarib tayyorlash. <i>(Elektron hujjatlar bazasi texnik sabablarga ko'ra yo'qolmasligi uchun (alohida ko'rsatma asosida)).</i>	doimiy	O.Jo'raqulov, G.Maxamova
11	Viloyat hokimligi tomonidan tayyorlangan "XDFU" grifi ostidagi yig'ilish bayonlarini ro'yxatga (perechen) olib borish.	doimiy	J.Abdirahimov
12	Tegishli tarkibiy bo'limlar bilan birgalikda shahar va tumanlar hokimliklarida nazoratdagi hujjatlar ijrosi yuzasidan Ishchi guruhi tuzgan holda maqsadli va kompleks o'rganishlar o'tkazilishini tashkil qilish, shuningdek o'rganish natijalari yuzasidan rahbariyatga muhokama uchun axborot kiritish.	alohida reja asosida	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov, Ijro intizomi bo'limi hamda tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda
13	Viloyat hokimi, viloyat hokimligi rangli blankalarini tayyorlab, ro'yxatga olish.	doimiy	O.Jo'raqulov, G.Maxamova
14	Viloyat hokimligiga viloyat feldegerlik xizmati, maxsus aloqa xizmati, "O'zbekiston pochta" pochta xizmati orqali keladigan barcha hujjatlarni qabul qilish, o'z vaqtida ro'yxatga olinishini hamda ijrochilarga yetkazilishini ta'minlash.	doimiy	O.Jo'raqulov, G.Maxamova

T/r	Amalga oshiriladigan ishlar, koʻzda tutilgan tadbirlar	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
15	Hujjatlarni oʻz vaqtida yetkazilishini (<i>feldegerlik aloqali, pochta aloqasi, "E-xat" himoyalangan elektron pochta orqali</i>) ta'minlash.	doimiy	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov, G.Maxamova
16	ViLOYATNING barcha shahar va tuman hokimliklarining umumiy boʻlimi rahbarlari ishlariga amaliy yordam berish va nazorat qilib borish.	doimiy	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov
17	Ish yuritishda axborot texnologiyalarini joriy qilish sohasida maxsus adabiyotlar, xalqaro ekspertlar, sohaga aloqador institutlar tavsiyalarini va ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganib borish.	doimiy	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov, G.Maxamova
18	Respublika va xalqaro tashkilotlar tomonidan xorijiy mamlakatlar davlat boshqaruvi tizimidagi axborot texnologiyalarini,elektron hujjat aylanishi hamda ish yuritish tizimini joriy qilish masalalari bo'yicha onlayn va oflayn shaklda o'tkaziladigan seminarlar, konferensiyalar, sammitlar, ko'rgazmalar, yarmarkalarda bo'lim mudiri va mutaxassisining ishtirokini ta'minlash.	doimiy	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov
19	Ish yuritish va hujjatlar bilan ishlash sohasini yanada takomillashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritib borish.	doimiy	J.Abdirahimov, O.Jo'raqulov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
15-ilova

Viloyat hokimligi murojaatlar bilan ishlash bo'limining

2024-yil I yarim yilligi uchun tasdiqlangan

ISH REJASI

№	O'rganiladigan masalalar, ko'zda tutilgan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ullar
I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi dasturi xamda saylovchilar bilan uchrashuvlar vaqtida bildirilgan taklif va vazifalar, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi xamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan xarakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar.			
1.1	Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma, elektron, og'zaki murojaatlarini O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ro'yxatga olish, rahbarlarning topshirig'i bo'yicha ijrochilarga yetkazish va belgilangan muddatda ko'rib chiqilishini nazorat qilish.	muntazam ravishda	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
1.2	Viloyat hokimi, hokim o'rinbosarlarining tasdiqlangan jadval asosida qabulini tayyorlash va tashkil etish, qabulda bo'lgan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari bo'yicha berilgan topshiriqlarning bajarilishini nazoratga olish, ijrochilarga eslatmalar berib borish.	belgilangan muddatlarda	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
1.3	Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishda viloyat hokimligi guruh va kotibiyat rahbarlari hamda sohaga tegishli bo'lgan mutaxassislar ishtirokini ta'minlash.	doimiy	Qabul qilgan mas'ul, D.Ravshanov
1.4	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 12-sonli Qarori asosida shahar va tuman hokimliklarida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, yozma murojaatlarini ko'rib chiqilishini o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish.	belgilangan muddatlarda	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
1.5	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida"gi 341-sonli qarori ijrosi yuzasidan qabullar tashkil etish, murojaatlarni o'rganilishini doimiy monitoringini olib borish va murojaat bilan ishlashga mas'ul viloyat hokimligi xodimlari hamda tuman shahar hokimliklari xodimlarini mazkur qaror bo'yicha ish faoliyatlarini olib borishlari yuzasidan doimiy nazorat o'rnatish.	doimiy	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
1.6	Bosh vazir kotibiyati rahbarining 2023-yil 24-iyuldagi 53-sonli buyrug'iga asosan Viloyat xokimligi xamda tuman shahar xokimliklarida "edo.ijro.uz" xujjat aylanish tizimi joriy qilinganligi sababli kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ushbu tizim orqali ko'rib chiqish uchun qabul qilish va ijrosini tizim orqali ta'minlashni amalga oshirish.	doimiy	Viloyat, tuman shahar hokimlarini barcha o'rinbosarlar va murojaatlar bilan ishlashga mas'ul xodimlar
II. Viloyat hokimligi qabulxonasida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish masalalari.			
2.1	Viloyat hokimi, hokim o'rinbosarlarining tasdiqlangan jadval asosida qabulini tayyorlash va tashkil etish, qabulda bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari murojaatlari bo'yicha berilgan topshiriqlarning bajarilishini nazoratga olish, ijrochilarga eslatmalar berib borish.	qabul jarayonida	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
2.2	Jismoniy va yuridik shaxslarni vakillarini qabul qilishda viloyat hokimligi guruh va kotibiyat rahbarlari hamda sohaga tegishli bo'lgan viloyat boshqarmalari va tashkilotlari mutaxassislari ishtirokini ta'minlash.	qabul jarayonida	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
2.3	Zarur hollarda viloyat hokimligiga guruh bo'lib kelgan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishga tegishli o'rinbosarlar, idoralar va mahalliy hokimliklar rahbarlari va mas'ul xodimlarini taklif etish.	qabul jarayonida	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari
2.4	Viloyat hokimligiga kelgan, shuningdek guruh bo'lib kelgan murojaat etuvchilar yuzasidan o'tkazilgan qabul yakunlari va dastlabki ko'rilgan choralar bo'yicha viloyat rahbariyatiga axborot berish.	shu kuni soat 18-00 gacha	qabul qilgan mas'ul, D.Ravshanov

№	O‘rganiladigan masalalar, ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Mas’ullar
III. Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish masalalari.			
3.1	Viloyat, shahar va tuman hokimliklari, idoralar, boshqarma va tashkilotlarga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning ahvolini tahlil qilish, umumlashtirish va ko‘rib chiqish uchun viloyat hokimligining kengaytirilgan apparat yig‘ilishlariga kiritish.	chorak yakunlari bo‘yicha	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
3.2	Viloyat, shahar va tuman hokimliklari, idoralar, boshqarma va tashkilotlarga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning ahvolini tahlil qilish, umumlashtirish va ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	chorak yakunlari bo‘yicha	D.Ravshanov
3.3	Viloyat hokimligi virtual qabulxonasiga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqilishi monitoringini yuritash.	muntazam ravishda	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
IV. Viloyat hokimligi apparatining tarkibiy bo‘linmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning natijadorligini oshirish masalalari.			
4.1	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari kotibiyatlari tomonidan murojaatlarni o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini kunlik nazorat qilish, har bir ijro uchun birlashtirilgan mas‘ul bilan individual ishlash, muddati o‘tgan va yaqinlashayotgan murojaatlar to‘g‘risida kotibiyat mudiri va ijro uchun mas‘ullarga eslatmalar berib borish.	muntazam ravishda	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
4.2	Shahar va tuman hokimliklarida, viloyat boshqarma, tashkilot va korxonalarda ularning hududiy bo‘linmalarida murojaatlar bilan ishlash holatini Ishchi guruhi tuzgan holda o‘rganish.	belgilangan muddatlarda	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
4.3	Murojaatlar sonining ko‘payish sabablari bo‘yicha hududlar va sohalar kesimida chuqur tahliliy material tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish.	har oy yakuni bilan	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
4.4	Viloyat hokimi huzurida viloyat tashkilot, korxonalari va mahalliy hokimliklar tomonidan murojaatlar bilan ishlash holatini muntazam ravishda muhokama qilib borish.	har oyda bir marotaba	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari va mas‘ul xodimlar
V. Bo‘lim xodimlarining professional darajasi va ish malakasini oshirish.			
5.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari va respublika ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinadigan chiqishlarini o‘rganish.	muntazam ravishda	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
5.2	Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yangiliklarini doimiy ravishda o‘rganib borish, ular bilan ishlash bo‘yicha bilim va tajribani oshirish.	muntazam ravishda	
5.3	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va buning asosida shaxsiy ma‘lumotlar bankini shakllantirish.	muntazam ravishda	
5.4	Shahar, tuman hokimliklari, boshqarma, tashkilot va idoralarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash masalasiga bag‘ishlangan seminarlar tashkil etish.	har chorak yakunida	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari
5.5	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha monitoring o‘tqazib, murojaatlar soni ko‘paygan hamda samarasiz hal etilayotgan shahar va tumanlarda o‘rganishlar o‘tkazish. Qonun talablariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash, murojaatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarni nazoratga olish.	har oyda bir marotaba	
VI. Bo‘lim tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonlarini o‘rganish.			
6.1	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonini to‘liq o‘rganish, qonunbuzilish holatlari va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan viloyat hokimiga axborot kiritish.	aprel oyida	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari va mas‘ul xodimlar
6.2	Muborak tuman hokimligi hamda tasarrufiy tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonini to‘liq o‘rganish, qonunbuzilish holatlari va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan viloyat hokimiga axborot kiritish.	may oyida	D.Ravshanov, bo‘lim mutaxassislari va mas‘ul xodimlar

№	O'rganiladigan masalalar, ko'zda tutilgan chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ullar
6.3	Nishon tuman hokimligi hamda tasarrufiy tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonini to'liq o'rganish, qonunbuzilish holatlari va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan viloyat hokimiga axborot kiritish.	iyun oyida	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari va mas'ul xodimlar
6.4	Qashqadaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash jarayonini to'liq o'rganish, qonunbuzilish holatlari va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan viloyat hokimiga axborot kiritish.	iyun oyida	D.Ravshanov, bo'lim mutaxassislari va mas'ul xodimlar

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
16-ilova

Viloyat hokimligi yuridik xizmatning 2024-yil birinchi yarim yillikka mo'ljallangan ISH REJASI

T/R	Ustuvor vazifalar, O'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Bajarish uchun mas'ullar
1. 2024-yil I yarim yillikda ustuvor vazifalar			
1	2024-yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanishi bilan qabul qilingan Davlat dasturida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishida va bajarilishida ishtirok etish.	doimiy ravishda	N.Rahmatov Sh.Kushakov
2	Viloyat hokimligining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniyligini ta'minlashni tashkil etish, ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish. Huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish, ushbu hujjatlarning qonuniyligi, ularda korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarning mavjud emasligi yuzasidan xulosalar tayyorlash	doimiy ravishda	N.Rahmatov Sh.Kushakov
3	Viloyat hokimligining qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish va qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashda hokimlikning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish. Viloyat hokimligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatish. Qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar tayyorlash	doimiy ravishda	N.Rahmatov Sh.Kushakov
4	Shartnomaviy-huquqiy va talabnoma da'vo ishlarini yuritish, hokimlik tuzilmalarining mulkiy va boshqa manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, vujudga kelgan nizolarni sudgacha hal qilish choralari ko'rish, shartnomalar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligini tekshirish, shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha talabnoma va da'vo ishlarini olib borish, sud majlislarida ishtirok etish.	doimiy ravishda	N.Rahmatov Sh.Kushakov
2. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini maqsadli o'rganish masalalari			
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-sonli qarorining ijrosi bo'yicha tuman (shahar yuzasidan tanish ishlarini muntazam ravishda olib borish.	doimiy	N.Rahmatov Sh.Kushakov
3. Tashkiliy-amaliy tadbirlar			
6	Tuman (shahar) hokimliklari bosh yuriskonsultlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-sonli qarorining ijrosi bo'yicha amaliy yordam ko'rsatib borish.	doimiy	N.Rahmatov Sh.Kushakov
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-sonli qarori ijrosi bo'yicha ni ta'minlash maqsadida hududlarda viloyat adliya boshqarmasi bilan davra suhbatlari o'tkazish.	doimiy	N.Rahmatov Sh.Kushakov
4. Targ'ibot-tashviqot ishlari			

8	Viloyat hokimligi xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish ishlarini tashkil etish, viloyat hokimligining axborot xizmatiga viloyat hokimligi veb saytiga joylashtirish uchun qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va mohiyati to'g'risida ma'lumotlar kiritib borish. Yangi qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarining mazmun-mohiyatini aholiga tushuntirish ishlarini olib borish, ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar tashkil qilish.	har chorakda	N.Rahmatov Sh.Kushakov
---	---	--------------	---------------------------

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 8-apreldagi
147-4-0-Q/24-son qaroriga
17-ilova

Viloyat hokimining raqamlashtirish bo'yicha maslahatchisining 2024-yil I
yarim yillikka mo'ljallangan

Ish Rejasi

No	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar:
Raqamli infratuzilma			
1	Mobil aloqa va internet qamrovi sifatini yaxshilash: 1. Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi, Qamashi, Kitob va Dehqonobod tumanlarida mobil aloqa qamrovi bo'yicha aloqa va internet sifatini joyiga chiqqan holda o'rganish; 2. Mobil aloqa sifatini yaxshilash bo'yicha tegishli choralarni ko'rib, aloqa va internet qamrovi sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	I-yarim yillikda	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy sho'basini (S. Aripov), O'zkomnazorat inspeksiyasi viloyat hududiy sho'basini (Z. Nurmurodov), "EMMM" viloyat hududiy bo'limi (A. Nadjimov), Mobil aloqa operatorlari
2	IT yo'nalishiga yoshlarni jalb qilish va ularga qulay sharoitlar yaratish maqsadida 1 ta masofaviy xizmatlar markazini tashkil etish: 1. Talab darajasidagi binolar ajratish va jihozlash; 2. Talablarga mos ravishda yoshlar ro'yxatini shakllantirish; 3. IT eksportyor korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish.	I-yarim yillikda	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy sho'basini (S. Aripov), IT-Park Qarshi filiali (B. Qutbiddinov)
II. Raqamli ta'limni rivojlantirish			
3	Viloyatdagi 80 nafar davlat xizmatchilarini professional darajadagi xalqaro IT sertifikatga ega bo'lishlarini ta'minlash.	I-yarim yillikda	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Tuman (shahar) hokimliklari, boshqarma va tashkilotlar
4	"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 50 nafar yoshlarni xalqaro professional sertifikatlarga, 24 ming nafar yoshlarni boshlang'ich kurslarda o'qitish.	I-yarim yillikda	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Yoshlar ishlar agentligi viloyat boshqarmasi (U. Sultonov) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (O. Movlanov), Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U. Oripov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda
5	Samarqand shahridagi "School-21" maktabida viloyatning 100 nafar yoshlarini dasturlashga o'qitish: 1. Dasturlashga qiziquvchi viloyatdagi yoshlar ro'yxatini shakllantirish; 2. Qashqadaryo viloyati uchun "School-21" maktabda 100 nafar yoshlar uchun ajratish kvotalar doirasida hujjat topshirishini tashkillashtirish.	May	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy sho'basini (S. Aripov), Yoshlar ishlar agentligi viloyat boshqarmasi (U. Sultonov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda
6	Har bir mahallada "2 nafar dasturchi" loyihasi doirasida yoshlarni ingliz/nemis tiliga o'rgatish. 1. Har bir tuman(shahar), mahalla kesimida, jami 6 000 nafar yoshlarni ro'yxati va o'qitish rejalarini tasdiqlash; 2. Reja grafiklarga asosan yoshlarni ingliz va boshqa chet tillariga o'qitishlarni tashkil etish.	may	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat hududiy sho'basini (S. Aripov), Yoshlar ishlar agentligi viloyat boshqarmasi (U. Sultonov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda
V.Tashkiliy chora-tadbirlar:			

№	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar:
7	Raqamli texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan foydalangan holda IT-Park rezidentlar sonini 50 nafarga yetkazish	iyun	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Tuman (shahar) hokimliklari, Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat sho'basini (S. Aripov), IT-Park Qarshi filiali (B. Qutbiddinov)
8	IT eksport xizmatlar hajmini 3 mln dollarga, IT-xizmatlar hajmini 10 mlrd.so'mga yetkazish yetkazish.	iyun	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Tuman (shahar) hokimliklari, Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat sho'basini (S. Aripov), IT-Park Qarshi filiali (B. Qutbiddinov)
9	Viloyatga IT-outsorsing sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro kompaniyalarni jalb qilish	iyun	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Tuman (shahar) hokimliklari, Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat sho'basini (S. Aripov), IT-Park Qarshi filiali (B. Qutbiddinov)
10	Viloyat hokimligi apparatiga yangidan qabul qilingan xodimlarni hokimlik apparatida "Axborot xavfsizligi siyosati" bilan tanishtirilishini ta'minlash.	Jadval asosida	Viloyat hokimligi (I. Almanov), Viloyat hokimligi apparati bo'linmalari rahbarlari